

2019 yil yanvar-iyun oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **3 711,9 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **109,2 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning hajmi **2 469,9 mlrd.so'mni** o'sish sur'ati **111,8 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **66,5 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **71,0 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3 711,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 109,2 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi indeksi 109,8 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 88,0 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 103,7 % ga o'sishi hisoblanadi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 518,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,8 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	2019 yil	2018 yil	2018 yilga nisbatan, % da
O'simlik yog'i (tozalanmagan), ming tonna	8,0	9,3	86,0
Paxta linti, ming tonna	1,5	1,7	88,2
Aroq – ming litr 100 % spirt	216,0	611,4	35,3
Vino, ming litr	761,0	685,0	111,1
Un, ming tonna	60,5	58,4	103,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	6,7	7,3	91,8



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 141,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,8 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 33,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2 469,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 11,8 % ga ko'paygan, jami sanoatdagi ulushi esa 66,5 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 30,2 % dan 2019 yilning yanvar-iyun oyida 31,5 % ga ortgan.

Yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da





2018 yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 69,8 % dan 2019 yilning yanvar-iyun oyida 68,5 % bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamaygani kuzatilmoqda.



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 887,8 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida bu ko'rsatkich 23,9 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da.



-  Viloyatning boshqa korxonalari
-  Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 100,0 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi,% da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 43,2 % ulushini), Namangan (11,6 %), Uchqo'rg'on (9,9 %), To'raqo'rg'on (9,4 %), Uychi tumani (6,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019 yilning yanvar-iyun oylarida hududlarning
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**




Shu bilan birga eng kam ulush Yangiqo'rg'on (1,3 %), Chortoq (1,3 %), Norin (2,0 %), Mingbuloq (2,6 %) va Kosonsoy (3,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, iste'mol mollari hajmining eng katta qismi Namangan shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 47,1 %), Namangan (10,6 %), Uchqo'rg'on (9,1 %) hamda To'raqo'rg'on (8,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida To'raqo'rg'on, Chust va Namangan tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.


2019 yilning yanvar-iyun oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Namangan shahrida (2 607,5 ming so'm), Namangan tumanida (2 457,1 ming so'm), Uchqo'rg'on (2 167,3 ming so'm) va To'raqo'rg'on (1 582,7 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 342,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 893,4 ming so'm bo'lgani holda Namangan shahrida 1 891,8 ming so'mni, Namangan tumanida 1 490,3 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 1 325,8 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 917,3 ming so'mni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat ishlab chiqarish va iste'mol tovarlari xajmlari



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 2 634,5 mlrd.so'mni va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 71,0 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (100,0 %), Namangan (86,9 %) va Uychi (84,9) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (22,6 %), Pop (32,7 %) va Chust (53,9 %) tumanlarida kuzatildi.


2019 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 5 197 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2 267 tasi Namangan shahrida, 382 tasi Chust, 379 tasi Uychi, 359 tasi Namangan, 332 tasi Kosonsoy, 314 tasi To'raqo'rg'on, 233 tasi Uchqo'rg'on, 219 tasi Norin, 210 tasi Yangiqo'rg'on, 197 tasi Chortoq, 195 tasi Pop va 110 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

2019 yil 1 iyul holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni. (birlikda)



2019 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 961 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 59,4 % Namangan shahri, Kosonsoy, Uchqo'rg'on va Norin tumanlariga to'g'ri keladi.

**2019 yil 1 iyul holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
(birlikda)**



**Namangan viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-84-80